



**FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONALAR ROLI:
ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA
PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



TA'LIM TAMOYILLARINING MOHIYATI

Nodiraxon Nazirova

*Qo'qon davlat universiteti Pedagogika mutaxassissligining
1-bosqich magistranti*

Annotatsiya: *Ushbu ishda ta'lim tamoyillarining mazmuni, mohiyati va ularning o'quv-tarbiya jarayonidagi o'rni yoritilgan. Asarda ta'lim tamoyillari pedagogika fanining asosiy tushunchalaridan biri sifatida talqin etilib, ularning nazariy va amaliy ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqot davomida ilmiylik, tizimlilik, izchillik, ongli o'zlashtirish, ko'rgazmalilik, nazariya bilan amaliyot birligi hamda hayot bilan bog'liqlik tamoyillarining mazmuni ochib berilgan. Shuningdek, ularning ta'lim jarayonini tashkil etishdagi o'rni va o'qituvchi faoliyatiga ta'siri ko'rsatib o'tilgan. Ishda zamonaviy ta'lim jarayonida ta'lim tamoyillarini innovatsion texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish zaruriyati asoslab berilgan. Ta'lim tamoyillarining to'g'ri qo'llanishi ta'lim sifati va samaradorligini oshirish, o'quvchi shaxsining mustaqil fikrlashi va ijodiy yondashuvini rivojlantirishda muhim omil ekanligi ta'kidlangan.*

Kalit so'zlar: *ta'lim tamoyillari, o'quv jarayon, texnologiya, qonuniyat, tizim*

Kirish

Bugungi kunda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida o'qitishning nazariy va amaliy asoslarini chuqur o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Ta'lim jarayoni samaradorligini ta'minlovchi eng muhim omillardan biri — bu ta'lim tamoyillaridir. Ta'lim tamoyillari o'qitish va tarbiyalashning yo'nalishini belgilovchi, pedagogik faoliyatni tashkil etishda asos bo'lib xizmat qiluvchi nazariy qoidalar majmuasidir.

Ular o'quv-tarbiya jarayonida izchillik, tizimlilik, ilmiylik, hayot bilan bog'liqlik, tarbiyaviylik kabi jihatlarning uyg'unligini ta'minlaydi. Shuningdek, ta'lim tamoyillarini chuqur anglash va amaliyotda to'g'ri qo'llash o'quvchi shaxsining har tomonlama kamol topishiga, mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvini rivojlantirishga xizmat qiladi. Mazkur ishda ta'lim tamoyillarining mohiyati, ularning turlari hamda o'quv jarayonidagi o'rni va ahamiyati yoritiladi.

Asosiy qism

Ta'lim tamoyillari — bu ta'lim jarayonini tashkil etish, boshqarish va takomillashtirishga yo'naltirilgan asosiy qoidalar majmuasidir. Ular o'quv-tarbiya jarayonining samaradorligini ta'minlaydigan nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Har bir tamoyil o'qituvchi faoliyatini yo'naltiruvchi, o'quvchi faoliyatini esa faollashtiruvchi vosita sifatida namoyon bo'ladi.



**FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONALAR ROLI:
ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA
PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



Olimlarning ta'kidlashicha, ta'lim tamoyillari o'quv jarayonining qonuniyatlaridan kelib chiqadi va ularning amalda to'g'ri qo'llanishi o'qitish sifatini belgilab beradi. Didaktshunos olim V.A.Onishukning ta'kidlashicha, "ta'lim prinsipi ta'lim jarayonining tashkil etish shaklini, vositasini, o'qitish metodlarini, ta'lim mazmunini aniqlaydigan qoidalaridir". Pedagogik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ta'lim jarayonining mazmuni ta'lim maqsadiga, o'qitish metodi va vositalari esa ta'lim mazmuniga bog'liq. Shu jihatdan yuqorida keltirilgan ta'rif prinsip mohiyatini to'laqonli ifodalaydi. Shuningdek, Skatkin ham ta'lim tamoyillarini ta'lim jarayonida qo'llaniladigan umumiy talablar tizimi sifatida qo'yidagicha izohlaydi, <<ta'lim prinsipi bu o'qituvchi va o'quvchining hamkorligidagi faoliyati asosida, zarur bo'lgan natijaga olib keladigan qoidani keltirib chiqaradi>>. O'.J.Yo'ldoshev ham shu fikrlarga to'laqonli qo'shilgan holda o'zining kitobida shunday deydi: <<Ta'lim prinsipi bir tomondan umumiy o'rta ta'lim maqsadi va faoliyati mazmunini aniqlashtirishga yordam bersa, ikkinchi tomondan o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda samarali didaktik jarayonni tashkil etishga imkon yaratadi, ta'lim-tarbiya maqsadini o'rnatishga ta'sir ko'rsatadi>>.

Ta'lim tamoyillari quyidagi asosiy guruhlariga ajratiladi:

1. Didaktik tamoyillar – bu o'quv jarayonining mazmuni va shaklini belgilovchi asosiy qoidalar. Bularga ilmiylik, tizimlilik va izchillik, ongli o'zlashtirish, nazariya bilan amaliyot birligi, mustaqillik va faollik kiradi.

2. Tarbiyaviy tamoyillar – o'quvchi shaxsining axloqiy, ma'naviy va madaniy rivojiga yo'naltirilgan tamoyillar. Masalan, tarbiyalovchi ta'lim, insonparvarlik va milliy qadriyatlarga sodiqlik.

3. Psixologik-pedagogik tamoyillar – o'quvchilarning yosh, individual va psixologik xususiyatlarini hisobga olishga qaratilgan.

Asosiy ta'lim tamoyillari:

- Ilmiylik tamoyili. Bu tamoyil ta'lim mazmunining zamonaviy fan yutuqlari bilan uzviy bog'liq bo'lishini talab qiladi. O'quvchilar o'rganayotgan bilimlar hayotiy haqiqatlar bilan mos kelishi lozim. Bu holatni Yu.K.Babanskiy ham qayd etib, <<Ilmiylik tamoyili o'quv materialining fan darajasiga mos kelishini, ishonchli dalillar bilan asoslanishini va o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishni ta'minlaydi>>- deb ta'kidlagan.

- Tizimlilik va izchillik tamoyili. O'quv materiali mantiqan to'g'ri ketma-ketlikda berilishi kerak. Har bir yangi bilim oldingisiga tayanishi zarur. Bu tamoyil o'quvchilarda bilimlarni puxta o'zlashtirishga yordam beradi.

- Onglilik va faollik tamoyili. O'quvchi ta'lim jarayonida faol ishtirok etishi, o'z fikrini mustaqil ifoda eta olishi, bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirishi zarur. Bu tamoyilga K.D.Ushinskiy ushbu fikrni bildiradi, << Ta'lim o'quvchi ongiga ta'sir



**FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONALAR ROLI:
ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA
PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



etmasa, u hech qachon chin bilimga aylanmaydi. O'quvchi o'qituvchi bergan bilimno ongli ravishda o'zlashtirishi va uni hayotga tadbiq etishga o'rganmog'i lozim>>.

- Ko'rgazmalilik tamoyili. Bilimlarni o'zlashtirishda turli ko'rgazmali vositalar, texnik jihozlar, multimedialar va tajribalar qo'llaniladi. Bu tamoyil o'quv materialining tushunarli va qiziqarli bo'lishini ta'minlaydi. Pedagogika asoschisi Ya.A.Komenskiy fikricha: „Agar biror narsani bilmoqchi bo'lsang - uni iloji boricha ko'p sezgilar orqali idrok et. Ko'rish, eshitish, hid bilish, ushlab – bularning barchasi o'qitishda ishtirok etishi kerak”.

- Nazariya bilan amaliyot birligi tamoyili. Olingan nazariy bilimlarni hayotda, amaliy faoliyatda qo'llash zarur. Bu tamoyil o'quvchini hayotga tayyorlash, kasbiy ko'nikmalarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

- Hayot bilan bog'liqlik tamoyili. O'qitish jarayoni hayotiy tajriba, real voqelik bilan bo'lishi kerak. Shundagina o'quvchi o'rganayotgan bilimlarning amaliy ahamiyatini anglaydi.

Shuningdek, ta'lim tamoyillari zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashgan holda yanada samarali natijalar beradi. Innovatsion yondashuvlar, interaktiv metodlar, raqamli vositalar qo'llanilganda, bu tamoyillar o'quvchi shaxsining faolligini oshiradi va ta'lim sifatini yuksaltiradi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari ham aynan ushbu tamoyillarga tayangan holda olib borilmoqda. “Ta'lim to'g'risida”gi qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da ta'lim jarayonining ilmiy, tizimli, amaliy va shaxsga yo'naltirilgan asoslarda tashkil etilishi belgilangan. Umuman olganda, ta'lim tamoyillari — bu pedagogik faoliyatning nazariy yo'l-yo'rig'i bo'lib, u o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytiradi, o'quv jarayonining samaradorligini oshiradi va shaxsning har tomonlama kamol topishiga xizmat qiladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, ta'lim tamoyillari — bu o'quv-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish, o'qituvchi faoliyatini yo'naltirish va o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiluvchi muhim nazariy asosdir. Ular pedagogik faoliyatning mazmuni, shakli va usullarini belgilab beradi hamda ta'lim jarayonining yagona tizim sifatida ishlashini ta'minlaydi. Har bir tamoyil — ilmiylik, tizimlilik, izchillik, ongli o'zlashtirish, nazariya va amaliyot birligi, ko'rgazmalilik, hayot bilan bog'liqlik — o'zaro uzviy bog'langan holda ta'lim samaradorligini oshiradi. Ushbu tamoyillarni to'g'ri anglash va amalga qo'llash o'qituvchidan yuqori pedagogik mahoratni, o'quvchidan esa faol ishtirok va mustaqil fikrlashni talab etadi.

Zamonaviy ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlar, ilg'or pedagogik texnologiyalar va raqamli ta'lim vositalarini aynan shu tamoyillar asosida qo'llash muhimdir. Chunki ular o'quvchini bilim oluvchi emas, balki bilim yaratuvchi faol subyekt sifatida shakllantirishga yordam beradi. Shu bois, ta'lim tamoyillarining

